


2021- yil yanvar oyi uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida jami 384,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 94,0 %ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mukchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar oyida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,3 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,1 mingtani tashkil etib, o’tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 349 taga oshdi.

2021 yilning yanvar oyida o’tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi ko‘payib 3,5 martani (jami qurilishdagi ulushi **55,8 %ni**) tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2020- yilning yanvar oyidagi jami ko‘rsatkichga nisbatan **95,3 %ni** tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, %da
	01.02.2020- yil	01.02.2021- yil	
Samarqand viloyati	2 768	3 117	112,6
Samarqand sh.	999	1092	109,3
Kattaqo'rg'on sh.	85	106	124,7
tumanlar:			
Oqdaryo	112	151	134,8
Bulung'ur	55	68	123,6
Jomboy	99	120	121,2
Ishtixon	132	144	109,1
Kattaqo'rg'on	113	122	108,0
Qo'shrabot	63	67	106,3
Narpay	74	87	117,6
Payariq	216	255	118,1
Pastdarg'om	283	314	111,0
Paxtachi	59	65	110,2
Samarqand	115	137	119,1
Nurobod	46	45	97,8
Urgut	204	212	103,9
Toyloq	113	132	116,8



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (%da), 01.02.2021- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (35,1 %), Pastdarg'om (10,1 %) va Payariq (8,3 %) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **25,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **9,0** martaga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʼrsatkich darajasidan **5,9 %** punktga koʼpaygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamai qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **39,2 %i** yoki 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,5 marta koʻp**), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,8 %i**), Kattaqoʼrgʼon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,0 %i**) va Bulungʼur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,1 %i**), tumanlarga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxona va mikrofirmalar

■ 2021- yil yanvar ■ 2020- yil yanvar

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar oylarida qurilish ishlari bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **72,5 %** bajarilib, 2020- yilning yanvar oyini ko'rsatkichiga nisbatan **5,4 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **88,6 %**ni tashkil etgan holda **278,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **20,9 %**ni tashkil etib, **80,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan kamayish kuzatilib, **87,8 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi %da

mldr. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **15,7** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **106,7 %**ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,1 %**ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **368,4** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **93,6 %**ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **95,9 %**ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da

2021- yil yanvar



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil yanvar

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar

66,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **66,0 %** yoki **253,7 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

5,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **14,2 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,6 %ni** tashkil etdi.

63,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **160,3 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **63,2 %ni** tashkil etdi.

31,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **79,2 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,2 %ni** tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar oyida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	384,1	94,0	253,7
Samarqand sh.	138,1	94,9	91,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	9,1	127,5	6,0
tumanlar:			
Oqdaryo	33,1	94,6	21,9
Bulung‘ur	8,4	104,8	5,5
Jomboy	19,5	95,9	12,9
Ishtixon	19,7	96,7	13,0
Kattaqo‘rg‘on	12,4	100,7	8,2
Qo‘shrabot	9,7	100,9	6,4
Narpay	12,4	98,4	8,2
Payariq	27	97,6	17,8
Pastdarg‘om	17,8	60,8	11,8
Paxtachi	9,4	82,0	6,2
Samarqand	17,7	92,0	11,7
Nurobod	4,7	94,5	3,1
Urgut	21,9	96,8	14,5
Toyloq	23,2	104,1	15,3

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar

8,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

15,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

76,1



Bino va inshootlarni
qurish

2021- yil yanvar

3,0



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

55,8



Fuqarolik obyektlarini
qurish

41,2



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **9,7 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **29,9 %** punktga kamayib, **39,8 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **25,6 %** punktga ko'payib, **50,5%**ni tashkil etdi.



2021- yil
yanvar

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,6 %ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **20,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **95,3 %** (**20,8 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi **0,1 %** (**0,1 %** punktga kamaydi) tashkil etdi.



2021- yil
yanvar


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi %da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida **100,0** % ulush (**9,2** % punktga ko'paygan) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil
yanvar

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar oyida

Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Samarqand sh.
138,1

1

2

Oqdaryo
33,1

3

Payariq
27,0



Eng kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Nurobod
4,7

1

2

Bulungʻur
8,4

3

Kattaqoʻrgʻon sh.
9,1

2021- yil
yanvar

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021- yil
yanvar**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari